MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QODIROVA ZEBO GULBOYEVNA

TIBBIYOT TERMINLARI ONTOLOGIK MODELINI YARATISH VA ULARNING SEMANTIKASI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.512.133'373.46:61+81'322

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on Philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Qodirova Zebo Gulboyevna
Tibbiyot terminlari ontologik modelini yaratish va ularning semantikasi 3

Kadirova Zebo Gulboyevna
Creating an ontological model of medical terms and their semantics 25

Кадирова Зебо Гулбоевна
Создание онтологической модели медицинских терминов и их семантики ... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 51

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QODIROVA ZEBO GULBOYEVNA

TIBBIYOT TERMINLARI ONTOLOGIK MODELINI YARATISH VA ULARNING SEMANTIKASI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4746 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasining www.uzmu.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Raupova Laylo Raximovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “25” noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 10074, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (180 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “6” noyabr da tarqatildi.

(2025-yil “6” noyabr dagi 55- raqamli reyestr bayonnomasi)

N.A.Rahmonov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.B.Xujamqulova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.E.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminologik tizimni tadqiq etish bo‘yicha, asosan, terminlarning lug‘aviy strukturasi, semantik maydon va terminlararo semantik munosabatlar tahlili asosida keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar terminologiyaning nazariy asoslarini yanada rivojlantirish, terminlarning aniqligi va uzluksizligini ta’minlash hamda ularning amaliy qo‘llanilishini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Sinonimik, antonimik, iyerarxik, paradigmatik va sintagmatik munosabatlarning terminlar doirasida tadqiq etilishi tilshunoslik nazariyasi hamda amaliyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til texnologiyalarining rivojlanishi natijasida terminologik tizimni modellashtirish, avtomatlashtirish hamda boshqarish jarayonlari takomillashdi. Natijada terminologik lug‘atlar, tezauruslar va ontologik ma’lumotlar bazalari yaratilib, qidiruv tizimlari, avtomatik tarjima hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarida samarali qo‘llanilmoqda.

Dunyo tilshunosligida lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni tahlil qilish borasida amaliy tilshunoslikning ilg‘or yutuqlaridan keng foydalanilmoqda. Semantik tahlillar kompyuter texnologiyalari va metodlari yordamida tadqiq etilmoqda. Bugungi kunda til birliklarining semantik xususiyatlarini foydalanuvchiga qulay, funksional va strukturalashgan shaklda ifodalash masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu esa tadqiqotchilarni terminologik tizimlarni modellashtirishda yangi yondashuvlar ishlab chiqishga undamoqda. Tilshunoslikda kompyuter resurslaridan foydalanish natijasida tezaurus, WordNet va ontologik modellarga asoslangan lug‘at tizimlari shakllandi. Ushbu resurslar lug‘aviy birliklarni tizimli tahlil qilish, ularning semantik o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda terminlarning lisoniy ongdagi kognitiv mohiyatini yoritishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan til siyosati davlat tilining ilmiy va amaliy imkoniyatlarini kengaytirishga, xususan, terminologik tizimni rivojlantirish va uni raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Tibbiyot terminlarining zamonaviy ilmiy mezonlar asosida tizimlashtirilishi va amaliyotda samarali qo‘llanilishini ta’minlash bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tibbiy terminlarni ontologik asosda modellashtirish va semantik tuzilishini tizimli o‘rganish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Ushbu tadqiqot mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyot terminlarini ontologik modellashtirish, ularning semantik aloqalarini aniqlash hamda terminlararo munosabatlarni strukturaviy jihatdan tavsiflashga qaratilgan. Shuningdek, semantik munosabatlar tahliliga asoslangan terminologik ma’lumotlar bazasini shakllantirish va til texnologiyalarida samarali foydalanish o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining[1] 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-

[1] Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi. – Toshkent: Adolat, 2017. – 112 b.; Mirziyoyev Sh. “Adabiyot va san’at, madaniyatni

tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari bilan integratsiyalashuvini ta’minlashga doir vazifalar, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda tilimizning amaldagi faoliyatiga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ma’lum darajada o‘z hissasini qo‘shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liq.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ontologik ma’lumotlar bazasini yaratish, ontologik modellashtirish qonuniyatlari, metodologiyalarni ishlab chiqish va amaliy qo‘llanmalarni yaratishga doir tadqiqotlar T.R.Gruber[2], T.Berners-Lee, N.Noy[3], Gomes-Peres[4], M.Ushold, N.Guarinolarning ishlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, Rossiyada A.Y.Zinovieva[5] ontologik bilimlarga asoslangan ko‘p tilli intellektual kontent tahlil modelini ishlab chiqqan va uni boshqa tillarda qo‘llash imkoniyatini asoslagan. A.V.Dobrov[6] rus tilidagi xabar matnlari sintaktik birliklari

---

rivojlantirish xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2017. 4-avgust; Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi sonli Farmoni // Xalq so‘zi, 2017. 8-fevral. – № 28 (6722); Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 592 b.; Mirziyoyev Sh. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-sonli Farmoni // Ma’rifat, 2020. 21.10; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-son Qarori. 04.10.2019.

[2] Gruber T.R. The role of common ontology in achieving sharable, reusable knowledge bases / Principles of Knowledge Representation and Reasoning. Proceedings of the Second International Conference. J.A.Allen, R.Fikes, E.Sandewell eds. – Morgan Kaufmann, 1991. – P. 601-602.

[3] Noy N., McGuinness D. Ontology Development 101: A Guide to Creating Your First Ontology. – Knowledge Systems Laboratory Technical Report KSL-01-05 and Stanford Medical Informatics Technical Report SMI-2001-0880, March 2001. – P. 1-25.

[4] Gomez-Perez A., Corcho O. Ontology Languages for the Semantic Web. URL: http://ou.upm.eS/2646/l/JCR01. 2013

[5] Зиновиева А.Ю. Модель многоязычного интеллектуального контент-анализа (на материале англо, франко- и русскоязычных новостных сообщений о террористической деятельности). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.21 – Челябинск, 2022. – С. 10

[6] Добров А.В. Автоматическая рубрикация новостных сообщений средствами синтаксической семантики. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.21 – Санкт-Петербург, 2014. – С. 5.

iyerarxiyasining yangi kompyuter modelini ishlab chiqdi. Ushbu model sintaktik bog‘liqliklarni, iyerarxik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda sintaktik komponentlarning ma’nolar tizimiga oid ma’lumotlarni samarali va avtomatik tarzda ifodalash imkonini beruvchi universal algoritmni taqdim etadi. B.N.Nguyen[7] tomonidan ontologik modellar va semantik texnologiyalardan foydalanish asosida axborot resurslarini izlash modellari, usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan. N.V.Lukashevich[8] ontologik turdagi bilimlarni ifodalashning bir qancha modellarini taklif etadi. L.G.Fedyuchenko[9] tadqiqoti lingvistik ontologiya va tezaurus tamoyillari integratsiyasiga asoslangan texnik bilimlarni uzatish modelini nazariy asoslashga qaratilgan. Bundan tashqari, K.I.Belousov[10], N.Y.Kazakova, M.G.Zasedateleva[11], A.G.Shabalin[12], A.Aleksandrovich[13], R.A.Gatiatullin[14] kabi olimlar kompyuter lingvistikasi, amaliy tilshunoslikda semantik munosabatlar yuzasidan tadqiqot olib borganlar. Jumladan, R.A.Gatiatullin konseptual model yaratish, turk tillarini kompyuterda qayta ishlash uchun morfemalarga asoslangan yagona lingvistik bilimlar grafigi modeli[15] hamda agglyutinativ tillarning xususiyatlari va intellektual texnologiyalarda qo‘llanilish imkoniyatlari[16]ga doir izlanishlar olib borgan.

O‘zbek tilshunosligida A.Po‘latov, S.Muhamedova, N.Abduraxmonova[17], M.Abjalova[18], B.Mengliyev, L.Raupova, O.Abdullayeva[19], A.Eshmo‘minov, Sh.Gulyamova, A.Axmedova, N.Ataboyev, G‘.Abduvahobovlar tomonidan olib

---

[7] Нгуен Б.Н. Модели и методы поиска информационных ресурсов с использованием семантических технологий. Автореферат дисс. ... канд. тех. наук: 05.13.11 – Томск, 2012. – С. 16.

[8] Лукашевич Н.В. Модели и методы автоматической обработки неструктурированной информации на основе базы знаний онтологического типа. Автореферат дисс. ... канд. наук: 05.25.05. – Москва, 2014. – С. 34.

[9] Федюченко Л.Г. Терминологическая база данных как трансферная модель технического знания. Автореферат дисс. ... док. филол. наук: 10.02.21. – Тюмень, 2021. – С. 42.

[10] Белоусов К.И. Деятельностно-онтологическая концепция формообразования текста. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.19 – Барнаул, 2006. – С. 20.

[11] Заседателева М.Г. Репрезентация концепта “компетенция” в методическом дискурсе: онтологический и тезаурусный аспекты: (на материале немецкого и русского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2011.

[12] Шабалин А.Г. Разработка и исследование грамматического подхода для решения задачи автоматического выравнивания и объединения онтологий предметных областей. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2013.

[13] Александрович А. Математическое моделирование процесса анализа реляционных баз данных при интеграции информационных систем. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2017.

[14] Gatiatullin R., Khakimov B., Suleymanov D., Gilmullin R. (2017). Context-Based Rules for Grammatical Disambiguation in the Tatar Language. In: Nguyen, N., Papadopoulos, G., Jędrzejowicz, P., Trawiński, B., Vossen, G. (eds) Computational Collective Intelligence. ICCCI 2017. Lecture Notes in Computer Science. Vol 10449. Springer, Cham. // https://doi.org/10.1007/978-3-319-67077-5-51.

[15] Гатиатуллин А.Р., Прокопьев Н.А., Сулейманов Д.Ш. Модель лингвистических графов знаний тюркских языков // Онтология проектирования, 2024. Т. 14. – № 3 (53). – С. 366-378. DOI: 10.18287/2223-9537-2024-14-3-366-378.

[16] Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатиатуллин А.Р., Прокопьев Н.А. Когнитивный потенциал естественных языков агглютинативного типа в интеллектуальных технологиях // Онтология проектирования, 2023. Т. 13. – № 4 (50). – С. 496-506. DOI:10.18287/2223-9537-2023-13-4-496-506

[17] Abduraxmonova N.Z. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti (sodda gaplar misolida). Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 49 b.; Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Filol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 72 b.

[18] Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari. Filol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 80 b.; Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari. Filol. fan. d-ri … diss. – Toshkent, 2022. – 228 b.

[19]Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Filol. fan. b. fals. dok. … diss. avtoref. – Andijon, 2022. – 15 b.

borilgan izchil ilmiy tadqiqotlar sohaning rivojlanishiga sezilarli amaliy hissa qo‘shgan.

Markaziy Osiyoda A.Sharipbay, B.Ergesh, G.Elibayeva[20] qozoq va qirg‘iz tillaridagi otlarning ontologik modelini solishtirish masalalarini, N.Israilova, P.Bakasova, R.Niyazova, S.Kudubayeva, R.Turebayeva, A.Aktayeva, L.Davletkireyeva[21]lar kompyuter lingvistikasiga oid ta’lim dasturlarining ontologik modelini yaratish, A.S.Mukanova, L.Zhetkinbay[22]lar qozoq tilidagi sifat so‘z turkumini ontologik modellashtirish, N.Abduraxmonova, M.Aripov[23]lar o‘zbek tilida sifat so‘z turkumining ontologik modelini yaratishga doir izlanishlar olib borgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi ilmiy tadqiqot rejasining “Kompyuter leksikografiyasi”, “Ontologiya va semantik texnologiyalar” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sohaviy terminologik ontologik model yaratishda o‘zbek tilidagi tibbiyot terminlarini iyerarxik tasniflash va semantik maydonlarini aniqlash, tibbiy terminlar paradigmatik, sintagmatik tahliliga ko‘ra ontologik tamoyillarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kompyuter lingvistikasida ontologiya va semantik texnologiyalarning nazariy asoslari, ontologik ma’lumotlar bazasi yaratishda xalqaro tajribani o‘rganish va semantik resurslarda konsept ifodasini aniqlash maqsadida, ontologiya va tezaurus modellarida konsept tushunchasini qiyosiy tahlil etish;

tabiiy tillar jarayoni uchun ontologik instrumentlarni tavsiflash, Protege muharririda tibbiyot sohasi terminlarining ma’lumotlar bazasini yaratish;

terminologik ma’lumotlar bazasini loyihalashning iyerarxik tasnifi asosida asosiy sinflarni va ularning tarkibida kichik sinflarni aniqlash hamda ontologik modellashtirishda tibbiyot terminlarini paradigmatik, sintagmatik munosabatlar asosida tahlil qilish;

tibbiyot terminlari semantik munosabatlar tahliliga ko‘ra lingvistik bazasini shakllantirish va mazkur resursni samarali izlash imkonini beruvchi qidiruv interfeysi modelini https://uzbekontology.uz/ saytida loyihalashdan iborat.

---

[20] Шарипбай А.А., Ергеш Б.Ж., Елибаева Г.К., Жеткенбай Л. Сравнение онтологических моделей существительных казахского и кыргызского языков / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков “TurkLang 2018” (Труды конференции). – Ташкент: NAVOIY UNIVERSITETI, 2018. – 390 с.

[21] Sharipbay A., Niyazova R., Kudubayeva S., Turebayeva R., Aktayeva A., Davletkireyeva L. Ontological model of the educational program computational linguistics / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков “TurkLang 2018” (Труды конференции). – Ташкент: NAVOIY UNIVERSITETI, 2018. – 390 с.

[22] Шарипбай А.А., Елибаева Г.К., Муканова А.С., Жеткенбай Л. Онтологическое моделирование имени прилагательного казахского языка / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков “TurkLang 2018” (Труды конференции). – Ташкент: NAVOIY UNIVERSITETI, 2018. – 390 с.

[23] Abdurakhmonova N., Aripov M. Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков “TurkLang 2018” (Труды конференции). – Ташкент: NAVOIY UNIVERSITETI, 2018. – 390 с.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiyot ensiklopediyasi, tibbiy terminologiyaga oid lug‘atlar[24] va tibbiyot sohasiga doir matnlar korpusi tanlandi.

Tadqiqotning predmetini tibbiyot terminlarining semantik tuzilmasi, paradigmatik va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, iyerarxik tasnifi asosida ontologik modelda ifodalash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda tasniflash metodi, statistik tahlil metodi, ontologik modellashtirish usulidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiyot terminlari ontologik modelini yaratishda leksik semantik resurslarni shakllantirishga oid yondashuvlar asos qilib olinib, modelning semantik tasnifi yoritildi hamda lingvistik jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, ontologiya va tezaurus lug‘atida konsept tushunchasining lisoniy modellari tibbiy terminlar misolida dalillandi;

o‘zbek tilidagi tibbiy terminlar lug‘ati korpus asosida tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlari uchun ontologik vositalar yordamida tavsiflandi. Shuningdek, Protege muharriri yordamida tibbiyot sohasiga oid terminlarning ontologik modeli ishlab chiqildi;

terminologik ma’lumotlar bazasini loyihalashda iyerarxik tasnif asosida asosiy sinflar va ular tarkibida ichki sinflar aniqlanib, tibbiyot terminlari sohalariga ko‘ra guruhlarga tasniflandi hamda tibbiyot terminlarini ontologik modellashtirishda paradigmatik, sintagmatik munosabatlariga asoslangan metodologiya ishlab chiqildi;

https://uzbekontology.uz/ saytida tibbiyot terminlarning lingvistik bazasi yaratildi hamda ularning semantik guruhlariga ko‘ra ma’lumotlar bazasi arxitekturasi shakllantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Mazkur ilmiy tadqiqot ishi 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim etuvchi “Atamacom.uz” dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovalarini yaratish” nomli amaliy loyihada bevosita ishtirok etilib, platformaning ontologik bilimlar bazasini shakllantirishda ushbu tadqiqotda ilgari surilgan nazariy asoslardan namuna o‘rnida foydalanilgan. Shuningdek, 2024-2025-yillarda amalga oshirilgan “PARATRANSLATOR: parallel korpusga asoslangan kontekstologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” deb nomlangan innovatsion loyihada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilgan;

“Ko‘p sohaviy o‘zbek tili ontologiyasining dasturiy ta’minoti: Ontolingua” (DGU 20239705) uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini chiqarilgan xulosalarning izchilligi, ularni dalillovchi ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, to‘plangan material

[24] Solixo‘jayev Z. va boshq. Tibbiyot ensiklopediyasi – T.: Sharq, 2016. – 640 b., Usmanxodjayev A., Abilov O‘., Turaxanova M. Tibbiy atamalar lug‘ati. – T.: Donishmand ziyosi, 2022. – 400 b., Qosimov A. Tibbiyot terminlari izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: Tibbiyot, 2003. – 472 b., Qosimov A. Tibbiyot terminlari izohli lug‘ati. II jild. – Toshkent: Tibbiyot, 2003. – 568 b., Qosimov A. Tibbiyot terminlari izohli lug‘ati. III jild – Toshkent: Tibbiyot, 2008. – 576 b., Qosimov A. Tibbiyot terminlari izohli lug‘ati. IV jild. – Toshkent: Tibbiyot, 2008. – 480 b.

tahlilining ilmiy jihatdan yoritilgani, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning sohaviy ontologik elektron lug‘atlar[25], ontologik modellashtirishga oid nazariyalarga asoslangani tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot natijalari o‘zbek tili leksikasi, terminologiyasi, uning tarkibiy qismi bo‘lgan tibbiy terminlarni rivojlantirish, takomillashtirish va to‘g‘ri tartibga solishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, terminlar pragmatikasi, ya’ni ulardan to‘g‘ri foydalanish masalasiga ma’lum darajada hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Tadqiqot ishida tibbiyot terminlari ontologik modelining yaratilishi muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish (kompyuter ontologik lug‘atlarini yaratish) va uni axborot resurslari bilan boyitishga ko‘maklashadi.

Dissertatsiya materiallaridan oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “Amaliy tilshunoslik”, “Kompyuter lingvistikasi”, “Ontologiya va semantik texnologiyalar”, “Kompyuter leksikografiyasi” kabi fanlar, shuningdek, tibbiyot fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Mazkur fanlar bo‘yicha yangi darslik, o‘quv qo‘llanma, ma’ruza matni hamda lug‘atlar yaratishda dissertatsiya materiallari manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tibbiyot terminlarini ontologik modellashtirish asosida tuzilgan ma’lumotlar bazasidan kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik ixtisosligidagi tadqiqotchilar, amaliy leksikografiya fan yo‘nalishidagi izlanuvchilar, shuningdek, tibbiyot sohasi xodimlari ham manba sifatida foydalanishlari mumkin. Qolaversa, tezkor axborot qidiruv ishlaridagi samaradorlikni oshiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiyot terminlari ontologik modelini yaratish va ularning semantikasini tadqiq qilish asosida:

o‘zbek tili kompyuter lingvistikasi uchun terminologik ontologik ma’lumotlar bazasini yaratish, xususan, tibbiyot terminlari ontologik bazasini tuzishda semantik munosabatlar tahliliga asoslangan tadqiqotining nazariy asoslaridan 2021-2023-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 2025-yil 17-martdagi 949/05-2-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha yangi fikr va xulosalar bilan boyigan;

o‘zbek tili korpusi uchun terminologik ontologik ma’lumotlar bazasini yaratish, shuningdek, o‘zbek tili korpusi uchun tibbiyot terminlarini semantik maydonlar bo‘yicha iyerarxik tasnifi asosida ontologik modellashtirish tamoyillaridan 2021-2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 14-martdagi 139/01-01-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini qo‘llash amaliy loyiha doirasida tayyorlangan lingvistik baza yaratish hamda korpusning dasturiy ta’minotini mukammallashtirishga xizmat qilgan;

[25] https://disease-ontology.org/

O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan “REP-25112021/113 – UzUDT: O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog‘liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” mavzusidagi xalqaro ilmiy loyihada tadqiqotning ontologik model yaratishda semantik munosabatlar tahlili, ontologiya va tezaurus modellarida konsept tushunchasi talqini, terminologik tizimda semantik maydonlarni aniqlashda semantik munosabatlar hamda iyerarxik tasnifi yuzasidan amalga oshirgan tadqiqi nazariy asos vazifasini o‘tagan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-martdagi 04/11-3400-son ma’lumotnomasi). Natijada ontologik model yaratishda semantik munosabatlar tahlili, ontologiya va tezaurus modellarida konsept tushunchasi talqini masalasiga oydinlik kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan chop etilgan 7 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarda, 6 ta ilmiy maqola (ularning 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi OAK e’tirof etgan ilmiy jurnallarda), 1 ta impakt faktor bazasida indekslangan ilmiy jurnalda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 128 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ontologiya kompyuter lingvistikasining o‘rganish obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida kompyuter lingvistikasida ontologiya va semantik texnologiyalarning vujudga kelishidagi nazariy asoslar, ontologiyani tasniflashning asosiy tamoyillari, yaratilish maqsadi bo‘yicha ontologiya turlari, ontologik modellar tavsifi, darajalar bo‘yicha ontologiya tasniflari, ontologiya va tezaurusda konsept tushunchasi talqini, tabiiy tillar jarayoni uchun ontologiyaga oid muharrirlar va ontologik tavsif tillari tahlil etilgan, sohada amalga oshirilgan ishlar xususida ma’lumot berilgan va uning nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning *“Kompyuter lingvistikasida ontologiya va semantik texnologiyalarning nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi bobning birinchi faslida ontologiyaning yaratilish zaruriyati, ontologiyaning olimlar tomonidan o‘rganilishi, ontologiya tushunchasining falsafa hamda kompyuter texnologiyalarida qo‘llanilishi va ta’riflari o‘rin olgan.

Lingvistik resurslarni lug‘atlar, tezaurus, ontologiya ko‘rinishida ifodalash mumkin. Dastlab falsafa fanida shakllangan “ontologiya” atamasi keyinchalik sun’iy intellekt tadqiqotchilari tomonidan o‘zlashtirilib, turli ilmiy yo‘nalishlarda qo‘llanish doirasini kengaytirdi.

Texnika va axborot texnologiyalarida “ontologiya” terminining tatbiq etilishi amerikalik olim T.Gruber nomi bilan bog‘lanadi. U aqlli tizimlar hamda inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tadqiq etish jarayonida ontologik yondashuvni taklif etgan. Olimning ta’rifiga ko‘ra[26], “Ontologiya konseptualizatsiyaning aniq va rasmiy tavsifi” sifatida ifodalanadi. Mazkur ta’rif ontologik modellashtirishga oid ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan va turli bilim sohalarida bilimlarni standartlashtirish hamda almashinish imkonini beruvchi umumiy konseptual model va lug‘aviy birliklarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirgan. Mazkur konsepsiya turli tizimlar va ilovalarda qayta ishlatilishi mumkin bo‘lgan ontologiyani yaratishga qaratilgan hamda ularni sun’iy intellekt tizimlarini yaratishning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi.

V.N.Borst, J.M.Akkermans[27] T.Gruber tomonidan ilgari surilgan ta’rifni rivojlantirib, ontologiyani “Umumiy tushunchalarning rasmiy ifodalanishi” tarzida talqin qiladilar va bunda rasmiylik hamda umumiylik tamoyillariga urg‘u beriladi.

Keyinchalik ontologiyaning bir qator ta’riflari yuzaga keldi. Eng mashhurlaridan biri italiyalik tadqiqotchi N.Guarino tomonidan quyidagicha: “Ontologiya – bu dunyoning mumkin bo‘lgan konseptualizatsiyalarini cheklaydigan rasmiy nazariya”[28] – deya qayd etiladi. Shuningdek, N.Guarino ontologiyaning nazariy asoslarini tahlil qilib, ontologiyani tasniflash va ularning o‘zaro farqlarini aniqlashda o‘z hissasini qo‘shgan.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Ontologiya va tezaurusda konsept tushunchasi talqini”* deb nomlanib, unda ontologiya ham, tezauruslar ham bilimlarni tashkil etish vositalari bo‘lib xizmat qilsa-da, konseptual tuzilishi va qo‘llanilishi bilan sezilarli darajada farqlanishi, ontologiya va tezaurus modellari tavsifi, ontologiya va tezaurusdagi konseptlar o‘rtasidagi munosabatlar tahlilga tortilgan.

Taksonomik munosabat ontologik munosabatlar ichida eng muhimi sifatida qayd etiladi. Taksonomiya – bu tasniflash yoki toifalash bilan bog‘liq jarayon. Odatda, u ikki qismdan iborat: sinflarning asosiy sxemasini ishlab chiqish (taksonomiya) va tushunchalarni sinflarga taqsimlash (klassifikatsiya). Taksonomiya tushunchasi ilk marotaba 1813-yilda shvetsariyalik olim Ap de Kandolle tomonidan fanga kiritilgan. 2009-yildan boshlab WordNet[29] kabi

---

[26] Gruber, T. R. A translation approach to portable ontology specifications // Knowledge Acquisition, 1993. Vol. 5. – № 2. – P. 199-220.

[27] Borst, P., Akkermans, J. M. Engineering Ontologies // International Journal of Human-Computer Studies, 1997. Vol. 46. – № 2-3. – P. 365-406. DOI: 10.1006/ijhc.1996.0096.

[28] Guarino N. Formal ontology and information systems // Proceedings of the FOIS’98. – Trento, Italy, 1998. – P. 3-15.

[29] George A. Miller (1995). WordNet: A Lexical Database for English // Communications of the ACM, 1995. Vol. 38. – № 11. – P. 39-41 // https://wordnet.princeton.edu/

lingvistik bazalar uchun qo‘lda tuzilgan taksonomiyadan vikipediya tizimida foydalanish imkoniyati asoslangan[30]. Taksonomik munosabatlarning asosiysi sifatida *is-a, has-a* munosabatlari ajratib ko‘rsatiladi.

Is-a munosabati turlar (sinflar) o‘rtasidagi **has-a** munosabatidan ma’nosiga ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, has-a va is-a munosabatlarini farqlamaslik munosabatlar modelini yaratishda xatolikni keltirib chiqaradi.

Konsept termini tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin[31]. O‘zbek tilshunosligida Sh.Safarov, A.Mamatov, D.Xudoyberganovalar kognitiv tilshunoslikda markaziy tushunchalardan biri sifatida konsept tushunchasini talqin etishgan va eng ko‘p definitsiyaga ega bo‘lgan birlik sifatida ta’kidlashgan. Anglashiladiki, konsept yondashuvga ko‘ra, tilshunoslikda turli ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi, shuningdek, turli semantik texnologiyalarda qanday birliklar bilan ifodalanishida ham farqlar yuzaga keladi. Ontologiya kontekstida konsept obyektlar, obyektlar sinfi yoki toifasini ifodalovchi asosiy ma’no birligi bo‘lib, u ontologiyaning strukturaviy va semantik asosini tashkil qiladi.

Tezaurus kontekstida konsept ma’lum bir ma’noni ifodalovchi atama yoki atamalar to‘plamini anglatadi. Axborotni tushunish va axborot olishni osonlashtirish uchun atamalar o‘rtasida semantik munosabatlar o‘rnatiladi.

“Tabiiy tillar jarayoni uchun ontologiyaga oid instrumentariylar tavsifi” deb nomlangan birinchi bobning uchinchi faslida ontologik ma’lumotlar bazasini yaratishda foydalaniladigan ontologik muharrirlar va ularning imkoniyatlari, amaliy jihatlari, ontologik tavsif tillari va ularning afzalliklari yoritilgan.

Hozirgi kunda ontologiyani yaratish uchun ko‘pgina dasturiy vositalar mavjud bo‘lib, ularning muhim afzalliklaridan biri sifatida bilim va konsept tuzilmasini vizual tarzda ifodalay olish imkoniyati bilan baholanadi. Ushbu vositalar foydalanuvchilarga ontologik model elementlarini aniqlash, ular o‘rtasidagi semantik munosabatlarni belgilash, shuningdek, ma’lumotlar bazasi bilan integratsiyani ta’minlash imkonini taqdim etadi. Tadqiqotimiz doirasida ontologik muharrirlardan bir nechtasi, jumladan, OntoLingua, Protégé, OntoGen, HOZO, WebODE, NeON kabi vositalar va ularning funksional imkoniyatlari, foydalanuvchi interfeysi, avtomatlashtirish darajasi va qo‘llanish sohalari bo‘yicha tahlil qilindi.

Ontologiyani yaratishda keng foydalanilgan dastlabki instrument sifatida OntoLinguani qayd etish mumkin. OntoLingua[32] – 1990-yillarning boshlarida Stenford Universitetida ishlab chiqilgan ontologiyani yaratish va ulardan samarali foydalanish uchun mo‘ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi.

Protégé[33] – bu bepul, ochiq manbali ontologiya muharriri va bilimlarni boshqarish tizimi. Dastlabki davrda protégédan soha mutaxassislari tibbiyot

[30] Ponzetto S., Navigli. R. “Large-Scale Taxonomy Mapping for Restructuring and Integrating Wikipedia” / International Joint Conference on Artificial Intelligence (IJCAI 2009). – Pasadena, California, 2009. – P. 2083-2088.
[31] Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литаратуре и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – № 1. – С. 35-47.
[32] http://ksl.stanford.edu/software/ontolingua/
[33] http://protege.stanford.edu/

sohasi bilimlarini konseptual modellashtirish uchun foydalanishgan, so‘nggi paytlarda esa protégédan fanning turli sohalarida ontologik model yaratishda, xususan, semantik veb uchun ontologiyani yaratishda foydalanilmoqda. Mazkur sohadagi ilg‘or texnologiyalardan biri sifatida NeOn[34]ilovasi alohida ahamiyat kasb etadi. NeON – ontologiya tarmoqlarini yaratish, boshqarish va evolyutsiyani soddalashtirish vazifalarini bajaradi. Shu bois, NeOn katta hajmdagi bilimlarni modellashtirish va uzluksiz yangilash talab etiladigan sohalar uchun ilg‘or hamda samarali yechim sifatida e’tirof etiladi. NeOn platformasi ontologiyani yaratish va boshqarish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi hamda asosiy ustunlik sifatida keng ko‘lamli bilimlarni samarali modellashtirish va doimiy yangilashga moslashuvchanligi deya qayd etish mumkin. O‘rganishlarimiz natijasida ontologik instrumentlar o‘rtasida Protégé muharriri eng keng tarqalgan, foydalanish qulayligi va samaradorligi bilan ajralib turadigan vosita ekanligi haqida xulosaga kelindi. Tadqiqotimizning uchinchi bobida Protégé muharriri hamda ushbu muhitda ontologik model yaratish jarayoni batafsil tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Terminologik ma’lumotlar bazasini loyihalashda semantik munosabatlar tadqiqi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida terminologiyada iyerarxik tasnif, semantik maydonlar tahlili, tibbiy terminologik tizimni tadqiq etgan xorijlik va o‘zbekistonlik tadqiqotchilarning izlanishlari tadqiq etilgan. Mazkur bobda terminologik tizimda paradigmatik, sintagmatik munosabatlarning nazariy asoslari ifodasini topgan hamda misollar asnosida ifodalangan tahlillar aks etgan.

Ikkinchi bobning birinchi fasli *“Terminologiyada iyerarxik tasnif va semantik maydonlar tahlili”* deb nomlanib, mazkur faslda dunyo tilshunosligida tibbiy terminlarni tizimlashtirish va lingvistik aspektda tadqiq qilishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilganligi, tibbiyot terminologiyasini tadqiq qilishda E.V.Bekisheva[35], E.D.Makarenko[36], L.Besekirskaya, O.G.Borisova[37], S.I.Madjayeva[38], V.F.Novodranova, M.N.Chernyavskiy, S.M.Velichkova tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham tibbiy terminlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etishga qaratilgan bir qator ishlar mavjud. Jumladan, Z.Mirzahmedova[39],

[34] http://www.neon-project.org

[35] Бекишева Е.В. Формы языковой репрезентации гносеологических категорий в клинической терминологии. Автореферат дисс. ... д-ра филол. наук: 10.02.19. – Москва, 2007. – С. 50.

[36] Макаренко Е.Д. Когнитивно-деривационный потенциал хирургической терминологии. Автореферат дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19. – Краснодар, 2008. – С. 22.

[37] Борисова О.Г. Омонимия терминов медицинских наук. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01. – Краснодар, 2000. – С. 30.

[38] Маджаева С.И. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование. Автореферат дисс. ... д-ра филол. наук: 10.02.19. – Волгоград, 2012. – С. 38.

[39] Mirahmedova Z. Hozirgi o‘zbek tilining anatomik terminologiyasi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 159 b.

M.Navruzova[40], F.Abdulxairova[41], Z.Urunova[42], B.Suyunov[43] tadqiqotlarini qayd etish joizdir.

Terminologik tizimda iyerarxik munosabatning yuzaga kelishi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Iyerarxik munosabat asosida leksemalarning mazmun guruhlari ajraladi[44]. H.Ne’matov, R.Rasulovlarning fikrlariga ko‘ra bu holat ilmiy atamalar sirasida juda ko‘p uchraydi. Tibbiyot sohasi birliklari ham muayyan iyerarxiyani, yuqoridan quyiga tomon iyerarxiyani hosil qiladi. Yuqoridan quyiga tomon iyerarxiya eng katta, asosiy sinfni topishdan boshlanadi va uning ichki tarmoqlari aniqlanadi. Tibbiyot soha sifatida katta iyerarxik guruhning asosi, ya’ni subsinf hisoblanadi. Iyerarxiya birliklari sifatida esa uning barcha ichki sohalari olinadi.

Semantik maydon – ma’nosi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan leksemalar to‘plamidir. So‘z atrofidagi semantik jarayonlarning hosil bo‘lishida til birliklari o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Semantik maydon nazariyasini o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlandi. Bu borada R.Rasulov[45], Sh.M.Iskandarova[46], N.R.Nishonova[47], S.X.Muhamedova[48], H.Tojimatovlarning tadqiqotlarini qayd etish mumkin. Tilshunoslikda *maydon nazariyasi* haqida, avvalo, til birliklarining semantik tuzilishi va semantik munosabatlariga e’tibor qaratish lozim. So‘zlar ma’lum semasiga ko‘ra muayyan semantik guruhlarga birlashadi[49].

B.Suyunov o‘zlashma tibbiy terminlarni ma’no jihatdan shartli ravishda 5 ta semantik maydonga ajratgan. Tibbiyot sohasi qadimiy tarixga ega bo‘lishi va faoliyat doirasining nihoyatda kengligi sababli, terminologiyasi ham nihoyatda boy va murakkabdir. Shu bois, tibbiy terminlarning barchasini B.Suyunov tomonidan taklif etilgan semantik maydonlar doirasida to‘liq qamrab olish imkoni mavjud emas. B.Suyunov ajratgan semantik maydonlarga bir nechta qo‘shimcha semantik maydonlarni qo‘shgan holda tadqiqotimizda quyidagi semantik maydonlardan foydalandik:

1. Tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar oti semantik maydoni: *shifokor, hamshira, stomatolog, jarroh, travmatolog, pediatr, kardiolog, nevropatolog…*

---

[40] Navruzova M.G. o‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 60 b.

[41] Abdulxairova F.I. O‘zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 58 b.

[42] Urunova Z.N. O‘zbek tilida defektologiya terminlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 52 b.

[43] Suyunov B. T. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Filol. fan. d-ri … diss. – Toshkent, 2022. – 241 b.

[44] Ermatov I. Terminologik tizimda gipero-giponimik va ekvonimik munosabatlar. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 45.

[45] Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентности. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989.

[46] Iskandarova I.M. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 1999.

[47] Nishonova N.R. O‘zbek tilida “hayvon” arxisemali sememalar maydonining mazmuniy tahlili. Filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

[48] Muhamedova S.X. O‘zbek tilida harakat fe‘llarining semantik va valentlik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent, 2007.

[49] Mirtojiev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 40-42.

2. Anatomik terminlar semantik maydoni: *yurak, miya, jigar, oshqozon, ichaklar, bosh, bo‘yin, qo‘l, oyoq, og‘iz bo‘shlig‘i, tomoq …*

3. Kasallik nomlari semantik maydoni: *astma, infarkt, insult, sil, mioma, qizamiq, pnevmoniya, qabziyat, qandli diabet, shizofreniya, alsgeymer kasalligi …*

4. Davolash jarayoni bilan aloqador terminlar semantik maydoni: *operatsiya, terapiya, emlash, fizioterapiya, tekshiruv, biopsiya, rentgen, UTT tekshiruvi …*

5. Tibbiyotga oid o‘rin-joy nomlari semantik maydoni: *shifoxona, klinika, laboratoriya, reanimatsiya bo‘limi, ambulatoriya, dispenser, sanatoriya …*

6. Farmakologik vositalar va dori nomlari semantik maydoni: *antibiotik, tabletka, kapsula, eritma, inyeksiya, tomchi, malham, sirop, vaksina, analgin, paratsetamol, spirt, yod…*

7. Tibbiy asbob-uskunalar semantik maydoni: *termometr, tonometrtomograf, endoskop, mikroskop, skalpel, shtativ, qaychi, kislorod baloni, kislorod niqobi, shpris, kateter, nogironlar aravachasi, qo‘ltiqtayoq, tibbiy karovat …*

8. Diagnostika va kasallik belgilari semantik maydoni: *isitma, yo‘tal, og‘riq, harorat ko‘tarilishi, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, terlash, qaltirash, ko‘z qizarishi, sariqlik, shish, holsizlik, qon tahlili, ultratovush tekshiruvi, klinik tekshiruv, qon tahlili, peshob tahlili …*

9. Fiziologik va biokimyoviy terminlar semantik maydoni: *yurak urishi, qon aylanishi, nafas olish, nafas chiqarish, qon bosimi, immunitet, insulin, gormonlar, insulin, adrenalin* va boshqalar.

Ikkinchi bobning *“Ontologik modellashtirishda leksik birliklarning paradigmatik munosabatlar tahlili”* deb nomlangan ikkinchi faslida terminologik tizimda paradigmatik munosabat ifodasi haqida fikr yuritilib, misollar asnosida izohlab berilgan.

Til birliklari nutq oqimida birin-ketin saf tortadi, til birliklarining bunday kombinatsiyasi sintagma deyiladi. Sintagmatika ichidagi birliklarning tarqalish nisbatini, ya’ni yuqori darajadan quyiga tomon yoki quyi darajadan yuqori tomon tarqalish munosabatini esa iyerarxiya munosabatlari, qolaversa, til birliklarining vertikal munosabatlarini paradigmatika deb atash mumkin[50].

Tadqiqotimizda M.Mirtojiyevning paradigmatik munosabatning semantik jihatdan tasnifiga asoslandik, tibbiy terminologik tizimda mavjud sinonimlik, antonimlik (kam uchraydi), omonimlik hodisalariga ko‘proq diqqat qaratildi.

1. Sinonimiya – bu bir xil (yoki deyarli bir xil) ma’noga ega bo‘lgan, ammo grafik ifodalanishi turlicha bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatdir. Boshqacha qilib aytganda, sinonimiya leksik birliklar o‘rtasidagi semantik ekvivalentlik deb aytishimiz mumkin. Ushbu turdagi semantik munosabatga ega bo‘lgan juftliklar sinonimlar deyiladi. Sinonimlar ma’no tushunchasiga nisbatan ikki xil bo‘ladi: 1) so‘zlarning ma’no munosabati aynan bir xillikka asoslangan

[50] Влавацкая М.В. Введение в языкознание. Учебное пособие. – Новосибирск: Новосибирский государственный технический университет, 2019. – 140 с.

sinonimlar, ya’ni absolyut sinonimlar; 2) so‘zlarning ma’no munosabati aynan bir xil emas, balki qo‘llanilish konteksti, uslubida farqlanadigan sinonimlar semantik sinonimlardir.

Tibbiyot sohasi uzoq tarixiy davrda shakllangan bo‘lib, absolyut sinonimlar yani dubletlarga boydir. Ushbu holatni A.Madvaliyev “muayyan fanlarning to‘xtovsiz rivojlanishi, yangi-yangi tushunchalarning, terminlarning paydo bo‘lishi mahsulidir”, – deya baholaydi. Olim fikrini davom ettirar ekan, aksar ilmiy adabiyotlarda dubletlik (absolyut sinonimiya) terminologik sistemalarning dastlabki bosqichiga xos belgi sifatida ko‘rsatilishini ta’kidlaydi. Biroq dublitlik faqat terminologik sistemalarning dastlabki rivojlanish bosqichiga xos bo‘lib qolmasdan, balki terminologik sistemalar yangi-yangi terminlar bilan boyib borishi yoki yangi terminologik sistemalar vujudga kelar ekan, dubletlik (absolyut sinonimlik) an’ana sifatida hamon saqlanib kelayotganligini qayd etadi.

2. Antonimiya – qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘z o‘rtasida mavjud bo‘lgan semantik munosabatdir. Antonimlarni qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan juft so‘zlar deyish mumkin. Antonimik juft so‘zlar, odatda, bir xil grammatik toifaga kiradi, ya’ni ikkala element ham ot, ikkala elemant ham, sifat yoki ikkalasi ham fe’l tarzida bo‘ladi. Tibbiyot terminlarida antonimlikning ikki ko‘rinishi uchraydi: 1) leksik antonimlik; 2) morfologik antonimlik.

Leksik antonimlik hodisasi shaklan alohida mustaqil so‘zlarning bir-biriga qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, *kasal-sog‘lom, sog‘lik-kasallik, kuchli-zaif, tirik-o‘lgan* kabi.

Morfologik antonimlik hodisasi asoslarga qo‘shimcha qo‘shish orqali yuzaga kelgan antonimlikda kuzatiladi. Masalan, (giper – ortiqcha, oshish; gipo – kam, pasayish) *gipertermiya-gipotermiya, gipertoniya-gipotoniya, giperplaziya-gipoplaziya*; (taxi – tez; bradi – sekin) *taxikardiya-bradikardiya* va boshqalar.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Ontologik modellashtirishda leksik birliklarning sintagmatik munosabatlar tahlili”* deb nomlanib, unda terminologik tizimda sintagmatik munosabat ifodasi yoritib berilgan.

Sintagmatik munosabatga kirishuvchi lisoniy birliklar tanlanish xususiyatiga ega bo‘ladi, ya’ni har qanday qiymat jihatidan bir xil bo‘lgan lisoniy birliklar emas, balki mazmuniy muvofiqlashgan, ma’no taqozo etgan ikki paradigma a’zosi variantlarigina sintagmatik munosabatga kirishadi.

Sintagmatik munosabat til birliklarining o‘zaro mantiqiy birika olishi va yonma-yon qo‘llana olishi bilan belgilanadi. Har qanday til birligi boshqa har qanday til birligi bilan sintagmatik munosabatga kirisha olmaydi. Qachonki aloqaga kirishayotgan birliklar o‘rtasida ma’noviy aloqaning mavjud bo‘lishi talab etiladi. Aks holda grammatik bog‘lanish yuz bersa-da, sintagmatik munosabat yuzaga kelmaydi.

Quyidagi jadvalda (*1-jadval)* yurak so‘zi sintagmatik munosabatdagi ifodasi berilgan va bu birliklarning barchasi termin sifatida izohiga ega[51].

[51] Qosimov A. Tibbiyot terminlari izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: Tibbiyot, 2003. – 472 b.

1-jadval

